



JISMONIY SHAXSLARNING

# VALYUTA OPERATSIYALARI

BO'YICHA QISQACHA SHARH

2024 yil


yanvar-oktabr

## Jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari bo'yicha qisqacha sharh

### I. Transchegaraviy pul o'tkazmalari.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari 12,6 mldr dollarni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34 foizga ko'paydi (*1-diagramma*).

**1-diagramma. 2023-2024 yy. yanvar-oktabr oylari davomida kelib tushgan pul o'tkazmalar dinamikasi, mln doll**



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mablag'larning 78 foizi Rossiyadan (9,8 mldr doll) kelib tushgan bo'lib, o'tgan yilning mazkur davriga nisbatan 35 foizga oshgan. Mazkur transfertlarning qolgan qismi Qozog'iston (699 mln doll), AQSh (470 mln doll), Janubiy Koreya (458 mln doll), Turkiya (331 mln doll), Buyuk Britaniya (109 mln doll) va boshqa mamlakatlardan o'tkazilgan.

2024 yilning o'tgan davri mobaynida O'zbekistonga xalqaro pul o'tkazmalari hajmida kuzatilgan o'sish trendi asosan mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi asosiy hamkor mamlakatlarda iqtisodiy faoliyat va ish haqi miqdorining oshishi hamda rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi oqimi ko'laming ko'payishi bilan izohlanadi.


Misol uchun, internet platformalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyada mehnat muhojirlari faoliyat yuritadigan asosiy sohalarda taklif qilinayotgan ish haqi miqdori o'rtacha 38 foizga oshgan.

Jumladan, ish haqi miqdori qurilish sohasida 55 foiz, yetkazib berishda 48 foiz, taksi va restoran xizmatlariда 46 foiz hamda yuk tashish sohasida 14 foizgacha ko'paygan.

Shu bilan birga, O'zbekiston migratsiya agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshidan ishlash istagida bo'lgan 113 ming nafardan ziyod fuqarolar, asosan, rivojlangan mamlakatlarga rasmiy, xavfsiz hamda uyushgan holda ishga yuborilgan bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 barobarga oshgan.

Mazkur holat O'zbekistonga xorijdan jo'natilgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmida ham namoyon bo'lmoqda. Xususan, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmida o'tgan yilning mos davriga nisbatan AQShdan 37 foizga, Janubiy Koreyadan 71 foizga, Buyuk Britaniyadan 76 foizga hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 41 foizga o'sish kuzatildi (2-diagramma).

### **2023-2024 yy. yanvar-oktabr oylari davomida kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmi, mln doll**



*Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari*

Shuningdek, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida jismoniy shaxslarga kelib tushgan mablag'larning 7 mlrd dollari an'anaviy xalqaro pul o'tkazma tizimlari orqali (*o'tgan yilga nisbatan o'sish 19 foiz*), 4,9 mlrd dollari xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri (P2P) o'tkazmalari orqali (*o'sish 52 foiz*) hamda 650 mln dollari bank o'tkazmasi (SWIFT) orqali (*o'sish 2,4 barobar*) amalga oshirilgan (3-diagramma).

Bunda, joriy yilda xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri (P2P) kelib tushgan mablag'larning jami o'tkazmalar hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga (39 foizgacha) oshdi.

2024-yil boshidan P2P (onlayn) pul o'tkazmalari ko'lamining sezilarli darajada oshishi transchegaraviy to'lov tizimlari infratuzilmasining rivojlanishi hamda jismoniy shaxslar orasida mazkur xizmatlarning keng ommalashuvi bilan izohlanishi mumkin. Xususan, 2024 yilning yanvar-oktabr oylari davomida P2P (onlayn) tranzaksiyalari soni qariyb 59 milliontaga yetib, o'tgan yilga nisbatan 46 foizga ko'paygan.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida O'zbekistondan chet elga yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi 2,3 mlrd dollarni tashkil qildi.


## **II. Valyuta ayrboshlash operatsiyalari.**

2024-yilning yanvar-oktabr oylari davomida banklar hamda jismoniy shaxslar o'ttasidagi chet el valyutasi xaridi va sotuvi bo'yicha operatsiyalar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19 foizga (*3,3 mlrd doll*) ko'payib, *20,9 mlrd dollarni tashkil etdi*.

Mazkur davrda jismoniy shaxslar tomonidan banklarga *13,2 mlrd dollar* miqdoridagi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan *32 foizga ko'p* (*2023 yilning mos davrida – 10 mlrd doll*) chet el valyutasi sotilgan.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslar tomonidan xarid qilingan chet el valyutasi hajmi o'tgan yilga nisbatan *2 foizga o'sib*, *7,7 mlrd dollarga yetdi* (*2023 yilning mos davrida – 7,6 mlrd doll*) (4-diagramma).

**4-diagramma. 2023-2024 yy. yanvar-oktabr oylarida valyuta ayrboshlash operatsiyalari hajmlari dinamikasi, mln doll**



*Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari*

Natijada, jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan taklif hajmi talab hajmidan *5,5 mlrd dollarga ko'p* bo'ldi. Bu o'z navbatida, ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif manbai bo'lib xizmat qilmoqda.